

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEVA ZARNIGOR HASANBOY QIZI

**TURLI TIZIMLI TILLARDA HISSIYOT IFODALOVCHI
VOSITALARNING LINGVOMADANIY VA PSIXOLINGVISTIK TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati mundarijasi

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Ubaydullayeva Zarnigor Hasanboy qizi

Turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi vositalarning lingvomadaniy va
psixolingvistik tadqiqi.....3

Ubaydullayeva Zarnigor Hasanboy kizi

The linguocultural and psycholinguistic study of emotive expression tools in various
systemic languages.....26

Убайдуллаева Зарнигор Хасанбой кизи

Лингвокультурологическое и психолингвистическое исследование средств
выражения эмоций в разных системных
языках.....48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....53

Povalar

Appendixes

Приложения.....55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEVA ZARNIGOR HASANBOY QIZI

**TURLI TIZIMLI TILLARDA HISSIYOT IFODALOVCHI
VOSITALARNING LINGVOMADANIY VA PSIXOLINGVISTIK TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.3.PhD/Fil3713 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akbarova Zuxro Akmaljonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sultonova Shohista Muxammadjanovna
filologiya fanlari doktori, professor

Raupova Laylo Rahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «19» noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (616 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28). e-mail: info@fdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «4» noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «4» noyabr dagi 57 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari doktori, professor

N.R.Umarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til, inson, madaniyat va inson ruhiyatining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy antropotsentrik yondashuvda tilni inson tafakkuri, ruhiyati va madaniyatining mahsuli sifatida o‘rganish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Til inson tafakkuri va madaniyatining in‘ikosi bo‘lib, u nafaqat fikr almashish vositasi, balki dunyoni idrok etish, konseptual tizimni shakllantirish hamda milliy ongni ifodalashning muhim quroli hamdir. Ma’lumki, hissiyotlar psixolingvistik, lingvokognitiv, lingvokulturologik hamda kommunikativ-pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lib, turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi vositalar muloqot asosini tashkil etadi. Shu jihatdan mazkur muammo turli aspektlarda tadqiq etilayotganligi va kommunikatsiya jarayonining global xarakterga ega bo‘lib borayotganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida “olaning hissiy manzarasi” va jonli muloqotda hissiy konseptlar masalasi chuqur tadqiq etilgan, ammo turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi vositalar yetarlicha o‘rganilgan emas. Ushbu tadqiqotlarning muhimligi bir qator omillar – shaxs ongining to‘g‘ri rivojlanishida hissiyotlarning yuqori darajadagi ahamiyati, hissiyotlar va ularni ifodalovchi vositalarning tilda ko‘pligi va xilma-xilligi hamda o‘zgaruvchanligi, dunyo tillarida hissiyotlarning ifodalanish shakllariga ilmiy qiziqishning ortishi bilan belgilanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham so‘nggi yillarda hissiyot ifodalovchi vositalarning lingvistik va madaniy tahliliga bag‘ishlangan izlanishlar soni tobora ortib bormoqda. Bundan ko‘rinadiki, milliy tafakkur hissiyotlarning qanday idrok etilishi va ifodalanishini aniqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, “... ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”ni¹ ado etishda ham bu boradagi izlanishlarning aynan amaliy natijalar berishi nazarda tutiladi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarda tilning hissiyot ifodalash bilan bog‘liq vazifasini chuqurroq anglash, xalqning madaniy-psixologik dunyoqarashi bilan bog‘liq nazariy xususiyatlarning yoritib berilishi tadqiqot dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qaror va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси / 2017 йил, 22 декабрдаги нутқи // “Халқ сўзи” gazetasi, 23.12.2017. – № 258.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va o‘zbek tilshunosligida hissiyot ifodalovchi vositalarning psixolingvistik, sotsiolingvistik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik va chog‘ishtirma tadqiqi doirasida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Rus tilshunoslaridan A.A.Shaxmatov, V.I.Shaxovskiy, I.I.Chesnokov, N.A.Krasavskiy, E.Y.Myagkova, N.A.Bagdasarova² hissiyotlarning turli tizimli tillardagi chog‘ishtirma tadqiqi, lingvokulturologik aspektiga e‘tibor qaratgan bo‘lsalar, V.P.Morozov tadqiqotlarida inson va hayvonlarda hissiyotlarning ifodalanishi muammosi hal etilgan. E.S.Fomina, L.B.Babenko, L.M.Kolsova, S.Y.Tokmakovalar³ dialogik nutqda hissiyotlarning ifodalanishini o‘rgangan bo‘lsalar, A.P.Babushkin muloqot jarayoniga ta’sir qiluvchi novebal vositalarni til va madaniyatdagi farqlarini izohlagan. I.R.Galperin, A.A.Leontevlar matn tarkibida hissiyotlarning qanday ifodalanishini tahlil qilgan, P.E.Klobukov, E.V.Yakovleva, M.D.Gorodnikova va A.A.Savkolar hissiyot ifodalovchi leksik tizim va bu tizimning matn mazmunini shakllantirishdagi o‘rniga e‘tibor qaratib, G‘arbiy Yevropa hamda Amerika tilshunoslaridan ilgariroq, til ilmda yangi – emotiologik yo‘nalishning tajribaviy kontentlarini o‘rganishdi va bu yo‘nalish sistem-struktur paradigma doirasida tadqiq etilishi zarur, degan qat’iy fikrni ilgari surishdi⁴.

Ma’lumki, hissiyotlar shaxsning o‘ziga, atrofdagilarga, jamiyatga, ta’limga, mulkka, tabiatga, mehnatga bo‘lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan ijobiy, salbiy, yoqimli va yoqimsiz kechinmalardir. Shu bois ular har doim psixologlar va emotolog

² Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. Вып. 2: Учение о частях речи: дополнения. – Л.: Издательство Академии Наук СССР – Российская государственная академическая типография, 1969; Шаховский В.И. Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. – Волгоград: Издательство ВГПУ Перемена, 2009; Чесноков И.И. Месть как эмоциональный поведенческий концепт (опыт когнитивно-коммуникативного описания в контексте русской лингвокультуры). – Волгоград: Изд-во ВГПУ Перемена, 2008; Красавский Н.А. Эмоциональный концепт “отвращение” в романе Роберта Музиля “Душевные смуты воспитанника тёрлеса” // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2015. – С.114-118; Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – Волгоград: Перемена, 2001; Мягкова Э.Ю. Язык – эмоции – сознание – культура в теории А. Дамасио. – Тверь: Россия, 2022; Багдасарова Н.А. Эмоциональный опыт в контексте разных культур // Человек, 2005. – № 5. – С.105-111.

³ Морозов В.П. Занимательная биоакустика: Рассказы о языке эмоций в мире животных и человека. – М.: Знание, 1983; Фомина Е.З. Эмоциональные концепты в русской, немецкой, австрийской и швейцарской художественных картинах мира // Лингвоконцептология: перспективные направления. – Луганск: Изд-во ГУ ЛНУ имени Тараса Шевченко, 2013; Бабенко Л.Г. Обозначение эмоций в языке и речи – Свердловск: Изд-во Уральского университета, 1986; Кольцова Л.М., Токмакова С.Е. Оценка и эмоции в языке русской литературной сказки XVIII-XXI веков. – Воронеж: Наука-Юнипресс, 2015.

⁴ Бабушкин А.П. Поиск “тела знака” для наименования концепта // Филология и культура. Материалы международной конференции 12–14 мая / отв. ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов: Изд-во ТГ, 1999 – С.100-104; Галперин И.Р. Лексикологические и стилистические проблемы функционирования слова и словосочетания. – М.: Б.В., 1977; Леонтьев А.А. Язык, речь и речевая деятельность. – М., 1969; Клобуков П.Е. Метафора как концептуальная модель формирования языка эмоций // Язык, сознание, коммуникация. – М., 1997; Яковлева Е.В. Функциональная специфика междометий и релятивных конструкций как элементов эмотивного смысла в текстах психологической прозы: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2017; Городникова М.Д. Эмотивные явления в речевой коммуникации. – М., 1985; Савко А.А. К вопросу об универсальности эмоций и их связи с языком и культурой // Личность – слово – социум. – М., 2006.

tilshunoslarning qiziqishlari doirasida bo'lgan. Tilda inson hissiyotlarining aks etishi masalasi hamma vaqt dolzarb masala bo'lib kelgan. Emotiolingvistikaning ilk davrlarida A.Potebnya va E.Sepir inson hissiyotlarini psixolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etgan bo'lsalar, N.Xomskiy, N.Basniyer, B.Volek kabi olimlar hissiyotlar tasnifi va ularning tilda ifodalanishini tahlil qilgan. A.Vejbitska, P.Ekman, V.Makdugal, K.Izard, M.Arnold, N.Frijda, V.Frizen, P.Elsvort, V.Jeyms, R.Plutchik, J.Grey, E.Xol, V.Not⁵ kabi tadqiqotchilarning ishlarida hissiyotlar tasnifi, ularning ifodalanishi va lingvokulturologik jihatlari e'tiborga olingan.

O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, E.Begmatov, S.Mo'minov, S.Boymirzayeva, I.Azimova, M.Hakimov, Z.Akbarovalar⁶ muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-ruhiy holatlarida foydalanadigan birliklarga to'xtalgan bo'lsa, A.Abdullayev, A.Rahimov, A.Mamatov, R.Madjidova⁷ kabi olimlar ekspressiv lingvistikaga e'tibor qaratganlar. Sh.Alpanova, G.Nosirova, D.Buzrukova olam lisoniy manazarasida hissiy konseptlarni, M.Sayidxonov va G.Xasanova muloqot jarayonidagi paralingvistik vositalarni tahlil qilgan. E.Kenanbayev esa zamonaviy muloqot tili bo'lgan emitikonlarni amaliy jihatdan o'rganib chiqqan. Yuqorida qayd etilgan barcha olimlarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir⁸.

⁵ Потебня А.А. Слово и миф. – М., 1989; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993; Хомская Е.Д, Батова Н.Я. Мозг и эмоции. – М., 1998; Basnier N. Language and emotion // Linguistic Society of America, 2011. – №2. – P.433-435 (ISSN- 1535-0665); Volek B. Emotive Signs in Language and Semantic Functioning of Derived Nouns in Russian. – Amsterdam / Philadelphia, 1987; Wierbizcka A. Semantics, culture and cognitions. – New York: New York university Press, 1992; Ekman P. New Edition Emotions Revealed. – New York, 2007; McDougall W. Psychology: The Study of Behavior. – New York: Henry Holt and Company, 1912; Изард К.Э. Эмоции человека. – М., 1980; Arnold M.B. Feelings and emotions. – New York, 1970; Frijda N., Antony S.R., Agnetta Fischer // Feelings and emotions, 2012. Elektron manba. <https://www.cambridge.org/core/books/abs/feelings-and-emotions/emotions> (murojaat sanasi: 14.07.2023); Friesen W., Ellsworth P. The repertoire of nonverbal behavior: categories, origins, usage and coding // Semiotica, 1969. – V. 1. – №1. – 121-132 p; James W. Opening Up by Writing It Down: How Expressive Writing Improves Health and Eases Emotional Pain. – New York: Guilford Press, 2016; Plutchik R. Emotions and Life: Perspectives from Psychology, Biology and Evolution. – Washington: American Psychological Association, 2003; Gray J. Neoliberalism and Applied Linguistics. – London: Routledge, 2012; Холл Э. Как понять иностранца без слов // Фаст Дж. Язык тела. – М: Вече, Персей АСТ, 1995; Nöth W. Symmetries and Asymmetries between Positive and Negative Emotion Words // Proceed-tags... – Tübingen: Niemeier, 1992.

⁶ Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №6. – Б.104-107; Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур махсули // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. – № 3. – Б.19-24; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎМЭ давлат илмий нашриёти, 2008; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – №3. – Б.35-39; Мўминов С.М. Ўзбек мuloкот хулқининг ижтимоий-лisonий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008; Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001; Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007.

⁷ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент, 1987; Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 2. – Б.20-25; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2012. – Б.212-220; Маджидова Р.У. Аксиологическое исследование антропоцентрических пословиц (на материале узбекского и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: ЎЗР ФА ФГУ, 2020.

⁸ Алпанова Ш. Ўзбек тилида руҳий ҳолатнинг акс этиши. – Тошкент: Akademnashr, 2019; Nosirova G.M. Olamning lisoniy manzarasida emotsional konseptlar: Filol. fan. b. fals. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021; Buzrukova D.M. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlili:

Umuman olganda, jahon tilshunosligida hissiyot va muayyan hissiy konseptlar tadqiqi doirasidagi ishlar grammatik, sotsiolingvistik, qiyosiy, lingvokulturologik, leksikografik aspektlarda bajarilgan bo‘lishiga qaramay, hissiyot ifodalovchi vositalar va ularning lisoniy voqeanishiga xos xususiyatlar hamda bu birliklarning lug‘aviy, gender, milliy, ijtimoiy tabiati monografik jihatdan o‘rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot ishi dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti “Til va tafakkur munosabati, madaniyat muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi insonga xos hissiyotlarning lisoniy voqelanishi va ularni ifodalovchi vositalarning hissiy-lisoniy olam manzarasida tutgan o‘rnini turli tizimli tillar misolida lingvomadaniy va psixolingvistik aspektda tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

insonga xos hissiyotlarni fanlararo yondashuv asosida tadqiq qilish, ularning psixolingvistik, lingvomadaniy xususiyatlari va kommunikativ mavqeyini hamda mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslab berish;

hissiy-lisoniy olam manzarasining verballashuv jarayonini lingvomadaniy jihatdan dalillab, ijobiy va salbiy hissiyot ifodalovchi vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilish;

turli tizimli tillarda hissiyot ifodalanishining psixolingvistik asoslarini aniqlash, hissiyot ifodalovchi vositalarning kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish, “hissiyot” konsepti verbalizatorlarining tabiatini ochib berish;

internet yozma muloqotidagi paralingvistik vositalarning emotsional ma’lumot yetkazishdagi rolini tadqiq qilish, kommunikatsiya jarayonida uchraydigan muammolarni hal qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi hissiyot ifodalovchi vositalar tanlab oligan.

Tadqiqotning predmetini hissiyot ifodalovchi vositalarning til tizimida tutgan o‘rnini belgilovchi lingvokulturologik va psixolingvistik xususiyatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, kognitiv, statistik hamda eksperimental tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy va psixolingvistik xususiyatlari, bu birliklarning har bir til kontekstida voqelanishi hamda asosiy hissiyotlarning barcha tillar uchun universalligi, ularning verbal va nonverbal shakllari, hissiy yuklamali birliklar va frazeologik vositalar orqali ifodalanishi jihatidan o‘xshash bo‘lgan hissiyot ifodalovchi vositalarning nutqda qo‘llanilish darajasi, madaniyatlararo kontekstda

Filol. fan. b. fals. d-ri ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024; Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1993; Xasanova G. Dialogik nutqda nonverbal vositalarning o‘rni va ularning pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals. d-ri ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2022. Кенанбаев Э. Эволюционные изменения невербальных средств коммуникации (на материале русскоязычных версий социальных сетей): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Наманган, 2022.

hissiyotlar tadqiqiga semantik va uslubiy yondashuvlar, shuningdek, hissiyotning jins va yosh omillariga ko‘ra farqli jihatlari asoslangan;

“hissiy-lisoniy olam manzarasi” tushunchasi lingvistik va psixologik komponentlar birligi sifatida tavsiflanib, ijobiy, salbiy va ambivalent hissiyotlarning til vositalari orqali tasvirlanishi hamda inson tafakkurida aks etish shakllari aniqlangan;

o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi asosiy hissiyotlar – *g‘azab, quvonch, qayg‘u, muhabbat, qo‘rquv va hayratni* ifodalovchi vositalar tahlil qilingan, ularning har bir til kontekstidagi lingvomadaniy talqini hamda inson ongida psixolingvistik jihatdan aks etish holatlari tavsiflangan, bu vositalarning madaniyatlararo tafovut va mushtarakligi bilan bog‘liq ifoda mexanizmlari isbotlangan;

muloqot jarayonida, shuningdek, internet yozma muloqotidagi paralingvistik vositalar (noverbal kommunikatsiya komponentlari: *emoji, gif, mem, stiker, nutq intonatsiyasini ifodalovchi belgilar*) bilan bog‘liq holda baholanib, ularning hissiy axborot yetkazishdagi kommunikativ-pragmatik roli dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hissiyot ifodalovchi vositalarning tadqiqi orqali turli tizimli tillar milliy olam manzarasining o‘ziga xos, o‘xshash va farqli jihatlari haqida muayyan xulosalarga kelingan;

dissertatsiyada o‘zbek, ingliz va rus tillarida asosiy hissiyotlarni voqelantiruvchi verbal va noverbal vositalarning madaniy-psixologik tabiatiga oid farqlar aniqlangan, tavsiflangan, ta’riflangan va dalillangan;

tadqiqot natijalari turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi vositalarning lisoniy talqinini anglashga, ayniqsa, muloqot va tarjima jarayonlarida matn mazmunini tushunishga yordam beradi;

tadqiqotda keltirilgan ilmiy-nazariy xulosalar lingvokulturologiya, psixolingvistika, leksikologiya, lingvopragmatika, chog‘ishtirma lingvistika, nazariy grammatika, lingvokognitologiya fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish hamda nazariy va amaliy kurslarning mukammallashuvi uchun xizmat qiluvchi hissiyot ifodalovchi vositalarga oid materiallar yig‘ilgan, tizimli tahlilga tortilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keltirilgan ilmiy ma’lumotlarning ishonchli nazariy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarning turli tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi va tadqiqot xulosalarining respublika miqyosida amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi vositalarning verbal va noverbal ifodalanishiga doir mavjud ilmiy-nazariy qarashlarning izchil tahlil etilganligi, shu asosda hissiyotning nutqiy ifodalarini o‘zbek, ingliz va rus tillari misolida lingvomadaniy hamda psixolingvistik jihatdan tadqiq etishning nazariy asoslariga doir yangi ilmiy qarashlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati va tadqiqot natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalardan, “Lingvokulturologiya”, “Psixolingvistika”, “Kognitiv

tilshunoslik”, “Pragmatik tilshunoslik”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Umumiy psixologiya” kabi nazariy fanlar hamda maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli tizimli tillardagi hissiyot ifodalovchi vositalarning lingvomadaniy va psixolingvistik xususiyatlarini o‘rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

turli tizimli tillarda hissiyot ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy va psixolingvistik xususiyatlari, bu birliklarning har bir til kontekstida voqelanishi hamda asosiy hissiyotlarning barcha tillar uchun universalligi, ularning verbal va noverbal shakllari, hissiy yuklamali birliklar va frazeologik vositalar orqali ifodalanishi jihatidan o‘xshash bo‘lgan hissiyot ifodalovchi vositalarning nutqda qo‘llanilish darajasi, madaniyatlararo kontekstda hissiyotlar tadqiqiga semantik va uslubiy yondashuvlar, shuningdek, hissiyotning jins va yosh omillariga ko‘ra farqli jihatlari borasidagi ilmiy xulosalardan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining F3-2019081663-raqamli “O‘zbek milliy raqs san‘atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb (elektron lug‘atlar) to‘plami yaratish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 27-dekabrda 1/04-162-son ma‘lumotnomasi). Natijada raqs san‘atiga oid matnning lingvistik birliklarida “hissiyot” konseptining voqelanishi masalasiga oydinlik kiritildi, o‘zbek, ingliz va rus tillari lingvomadaniy birliklaridan biri bo‘lgan hissiyotlarning lingvistik, milliy-madaniy va kommunikativ vazifalarini aniqlash hamda ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llashga doir ilmiy-nazariy, amaliy qarashlar mukammallashgan;

“hissiy-lisoniy olam manzarasi” tushunchasi lingvistik va psixologik komponentlar birligi sifatida tavsiflanib, ijobiy, salbiy va ambivalent hissiyotlarning til vositalari orqali tasvirlanishi hamda inson tafakkurida aks etish shakllariga oid takliflaridan bir haftalik seminar-trening, uchrashuvlar va yoshlarning intellektual salohiyati hamda ma‘naviy saviyasini yuksaltirish maqsadida “Yosh kitobxon” respublika tanlovini tashkil etish yuzasidan Yoshlar masalalari bo‘yicha respublika idoralararo kengashining 2017-yil 8-noyabrda 01-07/1-1714-son majlis bayonida belgilangan “Yosh kitobxon” tanlovining 2023-yilgi mavsumi Farg‘ona viloyati bosqichini o‘tkazishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 17-yanvarda 2-15-21-272-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati ortgan;

o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi asosiy hissiyotlar – *g‘azab, quvonch, qayg‘u, muhabbat, qo‘rquv va hayrat*ni ifodalovchi vositalar tahlil qilingan, ularning har bir til kontekstidagi lingvomadaniy talqini hamda inson ongida psixolingvistik jihatdan aks etish holatlari tavsiflangan, bu vositalarning madaniyatlararo tafovut va mushtarakligi bilan bog‘liq ifoda mexanizmlari yuzasidan berilgan xulosa va tavsiyalardan Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2023-2025-yillarda e‘fira uzatilgan “Yoshlar vaqti”, “Ma‘naviyat sarchashmasi”, “Xayrli kun!”, “Adabiy muhit” ko‘rsatuvlari hamda “Ma‘naviyat – qalb ko‘zgusi”, “Yoshlar kundaligi” eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 19-yanvarda 01-02/10-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuv hamda eshittirishlarning mazmuniy salmog‘iga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Ushbu tadqiqot ishi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 142 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda “hissiyot” tushunchasining nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobi uchta faslni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot ishining **“Hissiyot tushunchasi va hissiyotlar lingvistikasi”** deb nomlangan birinchi faslida “hissiyot” tushunchasi, hissiyotlar lingvistikasi nazariy jihatdan asoslangan. A.A.Shaxmatov, V.I.Shaxovskiy, I.I.Chesnokov, N.A.Krasavskiy, E.Y.Myagkova, N.A.Bagdasarova⁹, E.S.Fomina, L.B.Babenko, L.M.Kolsova, S.Y.Tokmakova¹⁰, A.Potebnya, E.Sepir, N.Xomskiy, N.Basniyer, B.Volek, A.Vejbitska, V.Not¹¹ kabi taniqli xorijlik tilshunoslar, shuningdek,

⁹ Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. Вып. 2: Учение о частях речи: дополнения. – Л.: Издательство Академии наук СССР – Российская государственная академическая типография, 1969; Шаховский В.И. Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. – Волгоград: Издательство ВГПУ Перемена, 2009; Чесноков И.И. Месть как эмоциональный поведенческий концепт (опыт когнитивно-коммуникативного описания в контексте русской лингвокультуры). – Волгоград: Изд-во ВГПУ Перемена, 2008; Красавский Н.А. Эмоциональный концепт “отвращение” в романе Роберта Музиля “Душевные смуты воспитанника тёрлеса” // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2015. – С.114-118; Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – Волгоград: Перемена, 2001; Мягкова Э.Ю. Язык – эмоции – сознание – культура в теории А. Дамасио. – Тверь: Россия, 2022; Багдасарова Н.А. Эмоциональный опыт в контексте разных культур // Человек, 2005. – №5. – С.105-111.

¹⁰ Морозов В.П. Занимательная биоакустика: Рассказы о языке эмоций в мире животных и человека. – М.: Знание, 1983; Фомина Е.З. Эмоциональные концепты в русской, немецкой, австрийской и швейцарской художественных картинах мира // Лингвоконцептология: перспективные направления. – Луганск: Изд-во ГУ ЛНУ имени Тараса Шевченко, 2013; Бабенко Л.Г. Обозначение эмоций в языке и речи – Свердловск: Изд-во Уральского университета, 1986; Кольцова Л.М., Токмакова С.Е. Оценка и эмоции в языке русской литературной сказки XVIII-XXI веков. – Воронеж: Наука-Юнипресс, 2015.

¹¹ Потебня А.А. Слово и миф. – М., 1989; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993; Хомская Е.Д, Батова Н.Я. Мозг и эмоции. – М., 1998; Basnier N. Language and emotion. // Linguistic Society of America, 2011. – №2. – P.433-435 (ISSN- 1535-0665); Volek B. Emotive Signs in Language and Semantic Functioning of Derived Nouns in Russian. Amsterdam / Philadelphia, 1987; Wierbizcka A. Semantics, culture and cognitions. New York: New York university Press, 1992; Nöth W. Symmetries and Asymmetries between Positive and Negative Emotion Words // Proceed-tags... – Tübingen: Niemeier, 1992.

A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, S.Mo‘minov, M.Hakimov, Z.Akbarova¹², A.Abdullayev, R.Madjidova¹³, Sh.Alpanova, G.Nosirova, D.Buzrukova, G.Xasanova, E.Kenanbayev¹⁴ kabi o‘zbek tilshunoslarining hissiyotlar lingvistikasiga oid muhim ilmiy qarashlarida til ilmida hissiyot nazariyasiga asos solinganligi va sohaning qanday rivojlanib borayotganligini ko‘ramiz. Ma‘lumki, “olam lisoniy manzarasi”da hissiyotlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Nutq ma‘lum bir hissiyotlar, hissiy vaziyatlar tufayli yuzaga chiqadi. Hissiyotlarni tushunish – inson shaxsiyatini tushunishning kalitidir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “his”, “hissiyot”, “tuyg‘u” tushunchalariga quyidagicha ta‘rif berilgan: **His** (ar. – sezgi, tuyg‘u, idrok) – 1. Tashqi ta‘sirni qabul qilish qobiliyati va shu ta‘sirdan yuzaga keladigan holat; sezgi, tuyg‘u ma‘nolarini anglatadi¹⁵. **Hissiyot** (ar. – his-tuyg‘ular va ularga berilganlik, hissiy holatlar) – kishi ruhiyatida sodir bo‘ladigan hissiy holat, shaxsni voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalari¹⁶. **Tuyg‘u** – 1. *fiziol.* Tashqi ta‘sirni sezish, his qilish, qabul qilib olish qobiliyati, sezgi. *Tuyg‘u yordamida biz issiqni yoki sovuqni his qilamiz.* [Zoologiya] 2. Ruhiy yoki jismoniy kechinmalar, his-tuyg‘ular majmui; his-hissiyot, his-tuyg‘u¹⁷.

Emotsiya [fr. emotion < lot. Emovere – “hayajonga solmoq, to‘lqinlantirmoq”] – tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilar ta‘siri natijasida hayvon va odamlarda paydo bo‘ladigan ruhiy kechinma; his, tuyg‘u; his-hayajon; qo‘zg‘alish¹⁸. **Emotsiya** so‘zi lot. *emovere* – qayg‘urmoq, hayajonlantirmoq fe‘lidan olingan. Emotsiyalar – bu “(odamlar va hayvonlardagi) ruhiy jarayonlar va holatlarning maxsus sinfi bo‘lib, instinktlar, ehtiyojlar, motivlar bilan bog‘liq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajriba ko‘rinishida (qoniqish, quvonch, qo‘rquv va boshqalar) shaxsga ta‘sir qiladigan hodisalar hamda

¹² Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №6. – Б.104-107; Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. – № 3. – Б.19-24; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎМЭ давлат илмий нашриёти, 2008; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талкини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001; Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007.

¹³ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент, 1987; Маджидова Р.У. Аксиологическое исследование антропоцентрических пословиц (на материале узбекского и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: ЎЗР ФА ФГУ, 2020.

¹⁴ Алпанова Ш. Ўзбек тилида рухий ҳолатнинг акс этиши. – Тошкент: Akademnashr, 2019; Nosirova G.M. Olamning lisoniy manzarasida emotsional konseptlar: Filol. fan. b. fals. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021; Buzrukova D.M. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlili: Filol. fan. b. fals. d-ri ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024; Xasanova G. Dialogik nutqda nonverbal vositalarning o‘rni va ularning pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals. d-ri ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2022. Кенанбаев Э. Эволюционные изменения невербальных средств коммуникации (на материале русскоязычных версий социальных сетей): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Наманган, 2022.

¹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 2- jild. E-K. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.394.

¹⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 2- jild. E-K. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.403.

¹⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 5- jild. T-V. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.469.

¹⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 2- jild. E-K. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.38.

vaziyatlarning ular hayotini amalga oshirishdagi ahamiyatini aks ettiradi”¹⁹. “Hissiyot” va “emotsiya” terminlari o‘rtasidagi o‘xshashlikning mavjudligi hamda yuqoridagi barcha tushunchalarni o‘zida mujassam etishi bois har ikki termindan ham tadqiqotimiz davomida foydalanishni ma’qul topdik.

Mazkur bobning “*Hissiyotlar fanlararo tadqiqot obyekti sifatida*” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida XX asr oxirida rus tilshunosi V.I.Shaxovskiy tomonidan fanga “emotiologiya” tushunchasining kiritilishi, bu fan hissiyotlarning inson faoliyatidagi rolini o‘rganishi, hissiyotlar yana qaysi fanlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida tanlanishiga e’tibor qaratilgan.

Emotiologiya, V.I.Shaxovskiy ta’biri bilan aytganda, muloqot jarayonida hissiyotlarni ifodalash va mana shu voqelik to‘g‘risidagi fandır. Agar psixologlar uchun his-tuyg‘ular tabiati, ularning namoyon bo‘lish shakllari va funksiyalarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega bo‘lsa, tilshunoslar uchun asosiy vazifa – hissiy holatlar va munosabatlarni tushuntirishning lingvistik vositalarini o‘rganishdan iborat. Dastlab “emotiologiya” atamasi bilan parallel ravishda yana bir nechta variant *emotologiya* V.G.Gak²⁰ va *emosiologiya* atamalari O.E.Filimonovalar tomonidan²¹ qo‘llanilgan. Ammo hozirda *emotiologiya* asosiy atama sifatida qat’iylashib bormoqda. Tadqiqot ishimizda biz ham atamaning aynan shu variantidan foydalandik.

Hissiyotlar kognitiv psixologiya va lingvistika tutashgan nuqtada, hissiy hodisalarni o‘rganishda yangi muammo hamda bahsli nuqtalarni ochib berdi. Hissiyotlar fanlararo tadqiqot obyektidir. Shu sababli bu sohada munozarali holatlar yetarlicha.

Fanda hissiy reaksiyalarning soni va turlari haqidagi savol uzoq vaqtlardan buyon muhokama qilib kelinadi. R.Dekart²² oltita asosiy hissiyotni qayd etadi: *ajablanish, sevgi, nafrat, istak, quvonch va qayg‘u*. 2001-yilda V.Parrott hissiyotlarning *daraxtsimon* strukturasi haqida gapiradi, unda birlamchi (primary), ikkilamchi (secondary) va uchlamchi (tertiary) hissiyotlar²³ mavjudligini ta’kidlaydi. U olti birlamchi hissiyotni ajratib ko‘rsatadi: *sevgi (love), baxt (joy), hayrat (surprise), g‘azab (anger), qayg‘u (sadness), qo‘rquv (fear)*. Olim tomonidan tahlil qilingan modelda yuzdan ortiq hissiyotlar qayd etilgan.

N.A.Bagdasarova turli madaniyatlar kontekstida hissiyotlarning leksik tizimini o‘rganar ekan, ulardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi: *qiziqish, baxt, hayrat, qayg‘u/azob, jirkanish, nafrat, qo‘rquv, uyat va gunoh*²⁴. Hissiyotlarni farqlashda E.Zuyeva quyidagi mezonlarni taklif qiladi: 1) intellektual baho (bu mezon asosida murakkab (hissiyotlar) va oddiy hissiyotlar ajratiladi); 2) hissiyotning “belgisi” (ijobiy (stenik) va salbiy (astenik) hissiyotlarga bo‘linadi); 3) yo‘nalish (hissiyotlar o‘ziga yoki atrofdagilarga qaratilgan bo‘lishi mumkin: shaxsiy va tashqi hissiyotlar

¹⁹ Мещеряков Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. – М.: Прайм-Еврознак, 2003. – С.56.

²⁰ Gak G.V. Phraseology in the context of culture (Russian Edition). – М., 2018. – P.45.

²¹ Филимонова Е.О. Язык эмоций в английском тексте. – М.: РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. – С.78.

²² Декарт Р. Первоначалах философии. – М.: Мысль, 1989. – С.32.

²³ Parrott W. Emotions in Social Psychology. – Philadelphia: Psychology Press, 2001. – P.378.

²⁴ Багдасарова Н.А. Эмоциональный опыт в контексте разных культур // Человек. – М., 2005. – №5. – С.105-111.

kabi); 4) faoliyatga ta'siri (faol hissiyotlar faollashtiradi, zaif hissiyotlar esa faoliyatni to'xtatadi); 5) intensivlik (hissiyotlar yuqori yoki quyi intensivlik darajasida bo'lishi mumkin)²⁵. Tadqiqot ishimiz davomida E.Zuyevaning fikrlariga tayangan holda hissiyotning "belgi"larini tasniflashga harakat qildik.

Ushbu bobning uchinchi fasli "*Tilshunoslikda hissiyotlarni o'rganishning asosiy yo'nalishlari*" deb nomlangan bo'lib, u tilshunoslikda hissiyotlar o'rganilishining asosiy yo'nalishlari, emotivlik, emotsionallik, ekspressivlik kabi tushunchalar tahliliga bag'ishlangan.

Hissiyotlar, bizningcha, asosiy (universal yoki bazaviy) va o'zgaruvchan turlarga bo'linadi. Hissiyotlar haqida fikr yuritilganda, albatta "emotivlik" va "emotsionallik" tushunchalari bilan bir qatorda insonning til va nutqdagi his-tuyg'ulari, kechinmalari tadqiq etilgan ilmiy ishlarda "ekspressivlik" tushunchasi ham qo'llaniladi.

"Ekspressivlik" kategoriyasi tilshunoslik, uslubshunoslik, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, estetika, psixologiya, mantiq, genetika va boshqa ilmiy sohalarda qo'llaniladi. Slavyan tillari grammatikasi, uslubiyoti hamda internet-kommunikatsiya sohasining taniqli mutaxassisi B.Toshovichning ta'kidlashicha, ekspressivlik "emotsionallik, uslubiy rang-baranglik, ifodalilik, obrazlilik, konnotativlik, estetiklik kabi kategoriyalar bilan murakkab munosabatlar doirasini tashkil qiladi"²⁶ va ularni bir-biridan farqlash zarur. M.Galkina-Fedoruk ishlarida ekspressivlik va emotivlikning o'zaro munosabatlari "butun va qism" munosabati doirasida ko'rib chiqilgan. Uning fikricha, emotivlik his-tuyg'ularni ifodalash uchun zarur bo'lsa, ekspressivlik esa ifodalilik va obrazlilikni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Olimning ta'kidlashicha, *ekspressiya* hissiz ham bo'lishi mumkin, ammo hissiylik ekspressiyasiz mavjud bo'la olmaydi: "Tilning emotsional vositalari har doim ekspressiv, ammo tilning ekspressiv vositalari har doim ham emotsional bo'lmasligi mumkin"²⁷.

Tadqiqotimiz davomida "emotivlik" va "ekspressivlik" kategoriyalarining o'zaro munosabati haqida fikr yuritganimizda V.I.Shaxovskiyning nazariy fikrlari va tahlillariga tayandik. Unga ko'ra, *emotivlik* so'zlovchining hissiyotlarini ifodalashdan iborat bo'lib, *ekspressivlik* esa muloqot akti bilan bevosita bog'liq va adresatga ta'sir ko'rsatish, uni nimagadir ishontirish maqsadiga xizmat qiladi. Ekspressivlik fikrni kuchaytirish va kommunikativ maqsadga erishish vositasi bo'lib, emotivlikdan farqli o'laroq, hissiy bo'lmagan holatlarda ham qo'llanishi mumkin. Shu sababli emotivlikni biz tilning funksional-semantik kategoriyasi, ekspressivlikni esa kommunikativ kategoriya sifatida ko'rib chiqamiz.

Hissiyotlar tadqiqi va tahlili tilshunoslik, psixologiya sohalari va madaniyatlararo o'zaro ta'sirning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Hissiyotlar zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan – psixolingvistika,

²⁵ Зуева Е.А. Эмоции как объект лингвистических исследований // Иностранные языки в профессиональном образовании: лингвометодический контекст: материалы межвуз. науч.-практ. конф. – Белгород, 17– 18 мая 2006. – Белгород, 2006. – С.148-154.

²⁶ Тошович Б. Экспрессивный синтаксис глагола русского и сербского/хорватского языков. – М.: Языки славянской культуры, 2006. – С.9.

²⁷ Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сб. статей по языкознанию. – М.: Изд-во МГУ, 1958. – С.103-124.

lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika, pragmlingvistika, emotiologiya, kognitiv tilshunoslik va matn tilshunosligi doirasida tadqiq etiladi.

Dissertatsiyaning **“Hissiy-lisoniy olam manzarasining lingvokulturologik jihati”** nomli ikkinchi bob uch faslni o‘z ichiga oladi.

Mazkur bobning birinchi faslida *“Hissiy-lisoniy olam manzarasining verballashuvi”* masalasi tadqiq qilingan.

Har bir lingvomadaniy jamoa o‘zining an‘analari, urf-odatlar, hayot tarzi, tamaddun darajasi va moddiy-madaniy tajribasidan kelib chiqib, “borliq haqida ijtimoiy ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi majmui”²⁸ bo‘lgan o‘ziga xos olam manzarasini yaratadi.

Emotiologiyada hissiyotlarni obyektivlashtiruvchi til birliklarini quyidagi usullar orqali tasniflash qabul qilingan: a) belgilash yoki nomlash; b) turli xil tasvirlash usullari; v) nutqda ifodalash. Emotiologiyada hissiyotlarni ifodalash ularning bevosita nutqiy shakllanishidir. Bu maxsus birliklar – *emotivlar* orqali amalga oshiriladi. Emotiologiyaning obyekti hissiyotlarni til orqali kategoriyalash va kognitiv-diskursiv emotivlik kategoriyasining ko‘p holatli taqdimotidir. “Hissiyotlar har doim nutqiy va ruhiy vaziyatga bog‘liq va ayni paytda kognitiv hamdir”²⁹. Shuning uchun til vositalarini tanlash hamma vaqt nutqiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi, chunki hissiyotlarni ifodalashning kamida ikkita tizimi mavjud: tana tili va so‘zlar tili. Emotsional nutqiy faoliyatning voqelanishi muloqotdagi to‘rt asosiy ko‘rsatkichning o‘zaro munosabati natijasidir. Bular: 1) so‘zlovchining emotiv maqsadi; 2) so‘zlovchi hissiyotining modalligi; 3) emotsionallik darajasi; 4) emotsiyaning yo‘naltirilganligi.

Hissiy deysisning ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan baholash harakati – pragmlingvistikadagi illokutiv maqsad va perlokutiv vazifa umumlashmasidan iborat³⁰. Illokutiv maqsad voqelanishida nutq subyekti emotsional-hissiy holati namoyon bo‘ladi, perlokutiv maqsadda esa tinglovchiga – adresantga ta’sir o‘tkazilishi taqozo qilinadi³¹. Hissiyotlarni inson o‘z dunyoqarashi, hissiy-kognitiv bilimi hamda hissiy-lisoniy olami bilangina tushunadi. Bu esa ikki tomon o‘rtasidagi tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi. Quyidagi badiiy matn parchasidan surat (tasvir) yoqmagandagi “aralash”, “tushunarsiz” hissiyot ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi gaplarda esa “g‘azab” hissiy holati tasvirlanadi.

*Temuriylarni bunchalik ulug‘lagan Behzod Shayboniyxonni jo‘n bir odam qilib tasvirlaganga o‘xshardi. Xon suratni ko‘rganda ko‘nglida qo‘zg‘algan **murakkab tuyg‘ularni** aytishga munosib so‘z topolmadi-yu, Behzodga qarab:*

— Mo‘yqalamni menga bering! — dedi.

Xonning avzoyi yomonligini hamma sezdi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 203-b.)

Masalan, rus tilidagi badiiy matnlar tahlil qilinganda ham ularda hissiyotlarning qanchalik “murakkab” ekanligi qayd etiladi:

²⁸ Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальное сознание. – Воронеж: Из-во ВГУ, 2007. – С.61.

²⁹ Wierbizcka A. Semantics, culture and cognitions. – New York: New York university Press, 1992. – P.487.

³⁰ Пиотровский Л.А. Теоретические и прикладные проблемы языкознания на рубеже XX в. // Лингвистика на исходе XX в.: Итоги и перспективы. Тезисы международной конференции, ч.2. – М.: Филология, 1985. – С.417-419.

³¹ Ko‘chiboyev A. Matn pragmatikasi. – Samarqand, 2015. – B.103.

– Славно! – сказал Стравинский, возвращая кому-то лист, и обратился к Ивану:

– Вы – поэт?

– Поэт, – мрачно ответил Иван и впервые вдруг почувствовал какое-то необъяснимое отвращение к поэзии, и вспомнившиеся ему тут же собственные его стихи показались почему-то неприятными. (М.Булгаков. Мастер и Маргарита, 103-с.)

“– Ajoyib! – dedi Stravinskiy, kimdandir varaqni qaytarib, so‘ng Ivanga murojaat qildi:

– Siz shoirmisiz?

– Shoirman, – dedi Ivan tundlik bilan va ilk bor birdan she‘riyatga qandaydir tushunib bo‘lmas nafratni his qildi. Shu zahoti xayoliga kelgan o‘zining she‘rlari ham negadir o‘ziga yoqimsiz tuyuldi”.

Yuqoridagi misollar orqali inson hissiyotlarining naqadar murakkab ekanligi, his qilinaётgan tuyg‘ular ifodasi uchun har gal ham munosib so‘zlar topilmasligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun ikki til va ikki xil madaniyat vakili bo‘lgan mualliflar bu holatni “murakkab tuyg‘u”, “munosib so‘zni topolmaslik”, “необъяснимое отвращение” (*tushunarsiz nafrat*) tarzida ifodalaydilar. Lekin keyingi o‘rinda “xonning avzoyi yomonligi” yoki Ivanning o‘z she‘rlari ham o‘ziga yoqimsizdek tuyula boshlagani, “*собственные его стихи показались почему-то неприятными*” jumlası vaziyatga berilayotgan hissiy bahoning yomon tomonga o‘zgarayotganidan dalolatdir. Bunda adresant (so‘zlovchi) ga tegishli belgilar verbal holatda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Tovushlar orqali:

Behzod sog‘ tishi sug‘urib olinayotgan odamday:

– ***Ih!*** — dedi.

Ammo Muhammad Solih Behzodning bilagini ma‘nodor qilib qisdi-yu:

– ***O! O!*** *Hazratim mo‘yqalam tekkizishlari bilan suratga yana fayz kirdi!* – dedi.

U Behzodni falokatdan faqat xonni maqtab qutqarish mumkin ekanligini sezib shunday demoqda edi, buni Behzodga ham sezdirgisi kelib:

– *Mavlonο, tarixiy bir hodisa yuz berdi!* – dedi. – *Siz chizgan suratga imomi zamon, Iskandari soniy o‘z muborak qo‘llarini tekkizdilar!* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 204-b.) Keltirilgan jumalalarda “*Ih!*”, “*O!O!*” birliklari orqali qoyil qolganlik hissi ifodalansa, “bilagini ma‘nodor qilib qisdi” birikmasi bilan “jim bo‘l” shaklidagi jahl hissining ifodalanganini ko‘rish mumkin.

So‘zlar orqali:

– *Shunaqami?* – dedi Tohir hayron bo‘lib. *Uning ko‘nglida boya tog‘asini ko‘rganda yongan quvonch endi tashvishli o‘ylar bilan almashindi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 76-b.) Misolda *quvonch* so‘zi orqali hissiyot ifodalanmoqda.

Ibora orqali:

Qazisan, qartasan, axir, aslingga tortasan! – dedi kampir omborni qulflayotib. – *Endi jir bitdi-da. Bitta ko‘ylak ikkita bo‘ldi! Uvada, isliqi to‘n, chilvir belbog‘ning xumorisi tutgandir!...* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari, 34-b.).

Gaplar orqali:

– Tohir, nega ag‘rayib turibsan? **Yuklarni tushirishgin!** – dedi onasi. – Mullo tog‘oying yomg‘irda ko‘p azob tortganga o‘xshaydir.

– **E, azob ham gapmi, opa!** Arava loylarga tiqilaverib jonimizdan to‘ydirdi. Yo‘llar tirband. Qochoqlar behisob. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 5-b.) Keltirilgan misol orqali his-hayajon gaplarni gap so‘ngidagi undov belgisi orqali ajratib olish mumkin. Birinchi gap orqali jahl, ikkinchi gap orqali esa xafagarchilik hissi ifodalangan.

Matnning umumiy mazmuni orqali:

– Bizning ayollarimiz Farg‘ona atlasidan savg‘o keltiring, deb tayin qilgan. Biz shuncha joydan ovora bo‘lib kelib, endi besavg‘o qaytaylukmi? Insof shumi?!

Ponsod so‘nggi so‘zni alam bilan aytganiga qaraganda, urushning g‘alabasiz tugaganidan juda norozi edi. Bu odamlar, urushdan katta o‘ljalar olish umidida oylab-yillab qon kechib, hamma azob-uqubatlarga bardosh berib yurar edilar. Agar Andijon va Axbi kabi boy shaharlar bosib olinsa, jangchilarning har biri o‘ljador bo‘lishi shubhasiz edi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 40-b.) Matndan anglashilgan umumiy mazmun “**norozilik**” hissini ifodalab kelmoqda.

Noverbal vositalar (ohang, tana harakatlari, mimika, jestlar, yuz ifodasi va holati) orqali:

– Saodat, – dedim. Qaradi. O‘choqda yongan olov issig‘idanmi yoki uyatdanmi uning **yuzi qip-qizil** olma edi. Qo‘lidagi sochig‘i bilan oldimga yaqin kelib to‘xtadi.

– Eshitdingmi, – dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yuriy boshladim-da, – Maylimi? – deb so‘radim. Javob o‘rniga

– Osh yemay ketasizmi? – dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan “mayli” javobi edi (A.Qahhor, Sinchalak, 13-b.) Badiiy matn ichida qayd etilgan belgilar (yuzi qip-qizil olma (metafora), ikkinchi turlik qilib aytilgan “mayli”) ga asoslanib tinglovchi voqelikni to‘liq anglaydi.

Hissiyot ifodalovchi verbal va noverbal vositalarning kommunikativ-pragmatik jihatlariga ko‘ra hissiyotlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1) ochiq (eksplitsit) ifoda:

Bugun Hirotdan, Alisher Navoiydan kelgan xat ham nasta‘liq bilan yozilgani esiga tushdi-yu, qalbidagi **quvonch va faxr tuyg‘usi** yangi bir kuch bilan mavjlana boshladi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 130-b);

2) yashirin (inimplitsit) ifoda asosan muloqot jarayonida ochiqqlanadi. Chunki tuyg‘ular insonning eng yashirin tomonlaridan bo‘lib, shuning uchun hamma vaqt ham bu tushuncha muloqot jarayonida anglashilmay qolishi mumkin:

Bobur buni tushundi-yu, homilaning necha oylik bo‘lganini bilgisi keldi, ammo ro‘yi ro‘st so‘rashga tili bormay gapni aylantirdi:

– **Endi...** shodiyonasi qachon?

– Salkam uch oy bor. O‘ylasam, **vahmim** kelur.

– Vahmni qo‘ya turing. Hozir **faxrdan** gap ochdingiz-ku. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar, 132-133-b.) Berilgan misolda andishaning tinish belgilari orqali mohirona tasvirlangani kuzatiladi. Matndagi *endi* so‘zidan so‘ng berilgan ko‘p nuqta, *ro‘yi ro‘st so‘rashga tili bormay* jumlasini orqali tinglovchi matndagi yashirin hissiyotni anglaydi.

Frazeologizm semantikasidagi emotsional axborot nutq jarayonida yoki matnda muayyan kommunikativ vaziyatda namoyon bo‘ladi. U lingvistik va ekstralingvistik, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, etimologik axborotlar bilan birga ifodalanadi. Buning natijasida muloqot ishtirokchilari (muallif, kitobxon, so‘zlovchi, tinglovchi) ning pragmatik maqsad va munosabatlari namoyon bo‘ladi. Bunday munosabatda adresant emotsional ma’noning, ya’ni munosabat bildiruvchining subyektiv baholovchisi vazifasini bajaradi. Subyekt tomonidan obyektning baholash tabiat, odamlar, narsa va hodisalarga nisbatan ijobiy, salbiy yoki ambivalent shakllarda o‘z aksini topadi. Subyektiv baho olamni lisoniy idrok qilishdagi milliy, madaniy, ijtimoiy mavqe va etnografik xususiyatlarni aks ettiruvchi lisoniy birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy adabiyotlardan bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin:

– *Xayriyat, – dedi mulla. Endi dimog‘i biroz chog‘ bo‘lgandi.* (S.Ayniy, Qullar, 45-b.)

Emma was in a stew over her friyend’s predicament, feyeling the wyeight of her concyerns pressing heavily on her mind. (J.Ostin, Emma, 57-p.) – Emma do‘stining mushkul ahvolidan tashvishda edi, uning xavotirlari o‘zini go‘yo igna ustida turganday his qildirardi.

Emotsional axborotdagi ma’noni anglashda frazeologizm tarkibidagi quyidagi makrostrategik koordinatalar ham aniqlanishi zarur: a) frazeologik birlikni qo‘llashdan maqsad; b) bunda qanday nutqiy harakatlar amalga oshiriladi; v) nutqiy harakatlar orqali kommunikantlar o‘rtasida qanday emotsional munosabatlar yuzaga keladi; g) frazeologik birlik qo‘llanilgan matnning emotsional potentsiali (kitobxonga, tinglovchiga ta’siri) va muallif yoki so‘zlovchining kommunikativ intensiyasi.

– *Voy xotintaloq hokim, oltinni ko‘rsa, og‘zi qulog‘iga yetadi*-ya! (M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha, 32-b.)

Umbridge was a cold fish, indifferent to the suffering of others, treating everyone with a chilling detachment. (J.K.Rowling, Harry Potter and the Sorcerer’s stone, 79-p.) – Umbridge sovuqqon va hissiz inson bo‘lib, boshqalarning azoblariga befarq qarar, hammaga sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘lardi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Hissiy-lisoniy olam manzarasida ijobiy hissiyotlarni ifodalovchi vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari*” tadqiqiga bag‘ishlangan.

Emotsional leksikani V.I.Shaxovskiy to‘rtta asosiy guruhga ajratadi. Ular ijobiy, salbiy, ambivalent va neytraldir³². Bizningcha, ijobiy, salbiy va ambivalent (*ambivalent* so‘zi ikki qarama-qarshi his-tuyg‘ularni yoki fikrlarni bir vaqtning o‘zida his qilish holatini anglatadi) guruhlar mavjud. Tadqiqotimiz davomida asosiy hissiyotlardan *quvonch* va *muhabbat* ijobiy, *hayrat* ambivalent hissiyot turiga mansubligi aniqlandi. Ijobiy hissiyotlar “kiritish” (F.Flemingdan ushbu iborani oldik)³³ – zavq olish, boshqalar bilan ko‘proq muloqot qilish, narsalarni yaxshilash, atrofdagi olam bilan birlashish harakatini anglatadi. Ijobiy hissiyotlar qatoriga *hayajon, baxt, sevgi, zavq, qiziqish, quvonch, do‘stlik, qoyil qolish, hurmat, mehr,*

³² Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – Волгоград: Перемена, 2008. – С.57.

³³ Флеминг Ф. Преобразующие диалоги: Учебник по практическим техникам для содействия личностным изменениям/ Пер. с англ. – Киев: Д.А.Ивахненко, 1997. – С.82.

baxtiyorlik va boshqalar kiradi. Insonda *quvonch* hissi turli shakl va darajada namoyon bo'ladi: uyg'otuvchi quvonch, osoyishta va sokin quvonch, yoki ehtirosli umid bilan to'lgan hayajonli quvonch. *Hayrat* – bu kutilmagan, g'ayrioddiy yoki noodatiy hodisalar natijasida hosil bo'ladigan chuqur ta'sirlanish holati³⁴. Masalan:

*The man looked at her curiously. "Jamaica Inn?" he said. "What would you be doing at Jamaica Inn? That's no place for a girl. You must have made a mistake, surely. "He stared at her hard, not believing her. (D.Dyu, Jamaica Inn, 92-p.) – Aravakash hayrat va shubha ichida qizga qaradi: "Yamayka mehmonxonasi"? – deb **hayrat** bilan qayta so'radi. – U yerda nima qilib yuribsiz? Bu qiz bolalar uchun mos joy emas. Siz nimanidir adashtirdingiz, albatta. Shundan so'ng u Meriga shubha aralash diqqat bilan tikilib, uni ko'zdan kechira boshladi.*

Ushbu misolda aravakash eshitgan gapidan qattiq ta'sirlanib, tarbiyali qizning qanday qilib "Yamayka mehmonxonasi" ga kelganini tushunolmaydi. Bu jumlada hayratni ifodalashda savol belgisining ishlatilishi muhim ahamiyatga ega, negaki savol belgisi bu yerda nafaqat qahramonning shubhasini, balki uning noroziligini ham kuchaytigan. Grammatik jihatdan esa takroriy savol hayratning kuchliroq darajada yetkazilishi va qahramonlarning kuchli hayajonlarini namoyish etish uchun qo'llanilgan. *Curiously* leksemasi ingliz tilida "*qiziquvchanlik bilan*", "*hayrat bilan*", "*ajablanib*", "*taajjub bilan*", ba'zida "*g'ayrioddiy*" kabi ma'nolarni anglatadi.

Ikkinchi bobning "*Hissiy-lisoniy olam manzarasida salbiy hissiyotlarni ifodalovchi vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari*" deb nomlangan uchinchi faslida salbiy hissiyotlarning lingvomadaniy tabiati ochib berilgan.

Qo'rquv, g'azab, qayg'u salbiy munosabat ifodalovchi asosiy hissiyotlarni tashkil qiladi. O'zbek tilida g'azabni ifodalashda g'azabi qaynamoq, qoni qaynamoq, g'azab junbushga kelmoq, joni chiqmoq, g'azabini keltirmoq, g'azabidan tushmoq kabi frazeologik birliklar ishtirok etadi.

Nigoraning beparvogina qaytargan javobi... Xo'jabekovning g'azabini qaynatdi. (S.Anorboyev, Oqsoy, 32-b.)

Muloqot jarayonida hissiyotlarni ifodalashdagi muhim xususiyatlardan biri paralingvistik vositalar, xususan, to'xtam (pauza) bo'lsa, yozma nutqda esa ko'p nuqtalar aynan so'zlovchining ruhiy holatini aks ettiradi. Yuqoridagi misolda ham to'xtam so'zlovchining beparvoligini ifodalash maqsadida qo'llanilgan, bu salbiy munosabat muloqot adresatining undan ham kuchliroq ruhiy holati va nutqiga sabab bo'lishi keyingi gapdagi g'azabini qaynatdi iborasi orqali ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Bu iboraga mos tarzda ingliz tilida *to be anger boiled over, to be was fuming*; rus tilida *ego/ee zhev vskunel, ego/ee paccpeдуно* iboralari qo'llaniladi. *Qo'rquv* hissiyotining verbalizatorlari sifatida *qo'rquv, dahshat (li), vahima(li), qo'rqoqlik, qo'rqinch (li), vahm, qo'rqish* kabi so'zlarni keltirish mumkin:

Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: "Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma", – deb tangriga yolborib qo'yar edim. (A.Qodiriy, Jinlar bazmi, 1-b.)


³⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 2- jild. E-K. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.467.

Bunday iboralar sirasiga *quti uchdi/o'chdi* iboralarni kiritish mumkin

– *Onaxon!* - dedi Anzirat ***quti o'chib***. – *Qayting bolam*. (A.Muxtor, Opa-singillar, 55-b.)

Hissiyot tahlilida modallik, munosabat va hissiy tushunchalarga ham e'tibor qaratish zarur. Munosabat va hissiyot bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ular turli ma'nolarni anglatadi. Munosabat – bu shaxsning voqea, hodisa, shaxs yoki predmetga nisbatan bildirgan qarashi, bahosi yoki yondashuvi³⁵. U ijtimoiy, madaniy, axloqiy yoki shaxsiy omillarga asoslanadi. Modal so'zlar nutqda so'zlovchining fikriga yo mantiqiy, yoki hissiy baho berish uchun ishlatiladi. R.Komiljonova bu mavzudagi tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, hissiy modal munosabat ifodalovchi: *zora, yaxshiki, koshki, xayriyat, haytovur, afsuski, attang, bo'lmasam-chi, ajabo* singari so'zlarni modal so'zlar safiga kiritadi³⁶.

Hissiy baho kommunikativ axborotlarga subyektiv munosabatni ifodalaydi. Subyektiv modallik so'zlovchining nafaqat mantiqiy bahosini, balki uning hissiy bahosini ham qamrab oladi. Lekin shuni aytish lozimki, hissiy undov so'zlar bilan ifodalanayotgan fikrga hissiy bahoni kiritish mumkin va ular gapda "o'ziga xos" kirish so'z vazifasini bajaradi. Masalan, *Afsuski, kecha stadionga bora olmadim/Eh, kecha stadionga bora olmadim* gaplaridagi biri modal, ikkinchisi undov bo'lgan so'zlar o'zaro o'rin almashish imkoniyatiga ega. Bunda ularning ma'nosiga deyarli putur yetmaydi. Aynan yuqorida keltirganimiz – hissiy munosabat ifodalaydigan modallar ayrim his-hayajon undovlari bilan nutq jarayonida o'xshash ma'no ifodalaydi, o'zaro sinonim bo'ladi hamda gapda bajargan vazifalari ham teng kelib qolishi mumkin. Hissiy undovlar ko'pincha kishining oniy tuyg'usini ifodalaydi. Ularning namoyon bo'lishi va shu asosda fonetik tuzilishlari ham modal birliklardan farqlanadi. Tadqiqot ishimiz davomida asosiy hissiyotlar tahlilidan so'ng, ularning qo'llanish chastotasi bo'yicha quyidagi diagramma tuzildi.



2.3.1-diagramma. Asosiy hissiyotlarning qo'llanilish chastotasi.

Ushbu diagramma asosida aytish mumkinki, bunda eng ko'p qo'llanilgan hissiyot *quvonch* bo'lib, *muhabbat* keyingi o'rinni egallaydi. Salbiy hissiyotlar orasida *qo'rquv* hissi ustunlik qiladi. Undan keyin esa *qayg'u, g'azab va hayrat* ketma-ket joy oladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, hissiyotlar inson tomonidan doimo yashirin ifoda etiladi. Insonlar atrofida gilardan, jamiyatdan o'z his-tuyg'ularini yashiradi va bu bilan o'zini baxtiyor va shodon ko'rsatishni xohlaydi.

³⁵ Клобуков П.Е. Метафора как концептуальная модель формирования языка эмоций // Язык, сознание, коммуникация. – М., 1997. – С.12.

³⁶Камильджанова Р. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1975. – С.14.

Uchinchi bob **“Hissiyot ifodalashning psixolingvistik asoslari”** deb nomlanib, u uchta fasldan tarkib topgan.

Bobning *“Hissiyotlar lingvopsixologiyasi muammolarining zamonaviy ta’limotlar doirasida o’rganilishi”* nomli birinchi faslida hissiyotlarning psixolingvistik xususiyatlari ochib berilgan.

Zamonaviy axborot makonining tobora ko‘proq vizuallashtirilgan mazmuni hissiy ta’sirga erishish uchun hissiy kreolizatsiya, turli semiotik kodlarning o‘zaro ta’siri sohasida yangi ilmiy ishlanmalarni tezkor sur’atda talab qila boshladi. V.Z.Demyankov tomonidan taklif qilingan belgilar asosida, shuni ham aytishimiz mumkinki, hissiyotlar lingvistikasi bugungi kunda hissiy fonetika, hissiy semantika, hissiy sintaksis, hissiy onomastika va hissiy aloqa kabi yaxlit “fanlar majmui”ni ifodalaydi³⁷. Ba’zi tadqiqotchilar verbal ifodalarda “jonli hissiyot” mavjud emasligini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, bunday ifodalarda nafaqat ma’ruzachining, balki tinglovchining ham hissiy reaksiyasini aks ettiruvchi “boshdan kechirilgan tuyg‘u” tavsiflanadi³⁸.

D.Leathers o‘z eksperimental tadqiqotlari orqali shuni isbotladiki, “metakommunikativ funksiyada og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalarni birgalikda qo‘llash jarayonida adresant, avvalo, noverbal vositalarga e’tibor qaratadi³⁹”. Og‘zaki bo‘lmagan muloqot elementlari ishoralarni ifodalash uchun eng samarali vositalardan hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, paralingvistik vositalar fonatsiyaga oid prosodik elementlar (masalan, intonatsiya va urg‘u)ni, kinetik vositalar (tana harakati va imo-ishoralar)ni va grafik elementlarni o‘z ichiga oladi.

Noverbal birliklar sirasida optik-kinetik tizimga asoslangan ko‘z bilan aloqa ham muhim o‘rin tutadi. E.Erikson ruslarning ko‘zlarida o‘ziga xos ifodalilik mavjudligini ta’kidlaydi. Ruslarning ko‘zlari “hissiy retseptor” va “o‘zaro ruhiy taslim bo‘lish a’zosi” sifatida ishlatilishini qayd etadi⁴⁰. Madaniy nuqtayi nazardan, rus madaniyati anglo-sakson madaniyatidan sezilarli darajada farq qiladi. E.Xollning fikriga ko‘ra, amerikaliklar faqat muloqot sherigi, ya’ni adresant, ularni to‘g‘ri anglaganiga ishonch hosil qilish maqsadida ko‘z bilan aloqa qiladilar⁴¹. O‘zbek madaniyatida esa ko‘z bilan muloqot qilish genderga bog‘liq holda turlicha talqin qilinadi. Masalan, erkak kishi ayol bilan muloqot qilayotganda uning ko‘zlariga tikilishi odatda odobsizlik yoki axloqsizlik belgisi sifatida baholanadi. Bu holatni O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan olingan misol orqali ko‘rsatish mumkin. Asarda erkak qahramon va ayol o‘rtasidagi muloqot tasvirlangan bo‘lib, unda ayolning ko‘zini yerga tikkan holdagi, hijolatli holati aks ettirilgan. Ko‘z bilan muloqot qilishning talqini har bir madaniyatning ijtimoiy va axloqiy me’yorlariga bog‘liq bo‘lib, bu jihatlar madaniyatlararo farqlarni ochib beradi.

Ayol bir zum yerga qarab turdi-da, iltimos qildi.

³⁷ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопр. языкознания. – М., 1994. – № 4. – С.17–33.

³⁸ Шингаров Г.Х. Эмоции и чувства как формы отражения действительности // АН СССР. Ин-т философии. – М.: Наука, 1971. – С.91.

³⁹ Leathers D. Successful Nonverbal Communication: principles and applications. – Macmillan, 1986. – P.300.

⁴⁰ Эриксон Э.Г. Детство и общество / пер. [с англ.] и науч. ред. А. А. Алексеев. – СПб.: Летний сад, 2000. – С.74.

⁴¹ Холл Э. Как понять иностранца без слов// Фаст Дж. Язык тела. – М.: Вече, Персей, АСТ, 1995. – С.35.

– *Islom akam bilan bir gaplashib ko'rsangiz...* (O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 63-b.)

Britaniyaliklar uchun ko'z bilan aloqa qilish odat tusiga kirgan: ular suhbatdoshning ko'ziga qarashlari kerak, chunki u tinglayotganini ko'rsatish uchun beixtiyor ko'zlarni miltillatib turishi kerak bo'ladi. Suhbatdoshini diqqat bilan tinglayotganini ko'rsatish uchun ko'z muloqoti davomida boshni ozroq qimirlatish (tasdiqlash ma'nosida), ko'zlarning vaqti-vaqti bilan yumib-ochilishi ijobiy xususiyat sifatida baholanadi.

Ushbu bobning *“Internet yozma muloqotidagi paralingvistik vositalarning hissiyot ifodalashdagi o'rni”* nomli ikkinchi faslida hissiyot ifodalashda o'zbek, ingliz va rus tillari internet yozma muloqotidagi paralingvistik vositalarning xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Texnologik taraqqiyot axborot uzatish vositalariga yangi imkoniyatlar olib kirdi va yangi muloqot shakllarini yuzaga keltirdi. Biz har kuni foydalanadiganimiz “tabassumli sariq yuzlar” bilan tanishmiz.

Ingliz tilidagi *emotion* (hissiyot) va *icon* (belgi) so'zlaridan *“emotikon”* atamasi kelib chiqqan⁴².

Dunyo bo'yicha eng mashhur 5 ta emoji toifasi quyidagilar

№	Emoji toifasi	Tavsifi	Namuna emoji
1	Baxtli yuzlar	Tabassum, kulgi, muhabbat va ijobiy his-tuyg'ularni ifodalaydi	😊 😄 😊 😌 😁
2	G'amgin yuzlar	G'am, ranj, tushkunlik yoki g'azab ifodasi	😞 😟 😓 😠 😡
3	Yurakchalar	Sevgi, samimiylilik yoki his-tuyg'ularga ega turli rangli yuraklar	❤️ 💜 💙 💚 💛
4	Qo'l imo-ishoralari	Qo'l harakati orqali qo'llab-quvvatlash, salomlashish yoki boshqa turli ifoda beruvchi belgilar	👍 🙌 🙏 🙇 🙄
5	Romantik belgilar	Muhabbat, o'pish, romantik munosabatlarni aks ettiruvchi belgilar	💋 💌 👫 💞

Dunyodagi kulgili yuzlar yoki belgilarning ma'nosi bir xil emas. “Yaxshi” belgisi 🐼 G'arb mamlakatlarida hammasi joyida ekanligini, Sharq mamlakatlarida axloqiy jihatdan nomaqbul ma'noni anglatadi. Yaponiyada bu imo-ishora pulni ifodalash uchun ishlatiladi. 🙌 emoji rivojlangan mamlakatlarda g'alaba, tinchlik belgisi sifatida qo'llanilsa, Braziliyada bu belgi axloqiy jihatdan qabul qilinmaydi. 🙏 emoji barcha insonlar tomonidan “qutqaring, xavf ostidaman” degan ma'noda ishlatiladi. Burundan bug' chiqaradigan yuz – 🤮 emoji yevropaliklar yoki amerikaliklar tomonidan g'azabni ifodalash uchun ishlatiladi. Yaponiyada esa u g'alabani ifodalaydi.

Ushbu bobning uchinchi fasli *“Hissiyot ifodalovchi verbal va nonverbal vositalar muvofiqligining psixofiziologik tahlili”* deb nomlangan bo'lib, unda hissiyot ifodalanishida verbal va nonverbal vositalarning qanchalik mutanosib kelishi haqida fikr yuritiladi.

⁴² Dico smileys (фп.). – alleur (belgique); [paris]: marabout, 2002. – ISBN 9782501037532 (murojaat sanasi: 03.04.2023).

Tadqiqot davomida *qo'rquv* hissining verbal va noverbal jihatdan badiiy matnlarda ifodalanishi, bir (oniy) lahzada, to'satdan yuzaga keladigan qo'rquv ta'sirida tananing harakati, yuzning holatini va bu vaqtda qo'llaniladigan so'zlarni ham aniqladik. Unga ko'ra:

- **tananing titrashi va fiziologik reaksiyalar:** *Trembling with excitement and fear* – hayajon va qo'rquvdan titrash. *She could not stop this chattering of her teeth and the shivering of her body* (D.Dyu More, Jamaica Inn, 23-p.) – U tishlarining takillashi va tanasining titrashini to'xtata olmadi;

- **yurak urishining tezlashishi:** *At first she could hear nothing but the loud beating of her heart* (D.Dyu More, Jamaica Inn, 33-p.) – Dastlab u faqat yuragining kuchli urishini eshitdi;

- **xavf va o'lim qo'rquvi:** *Her hands and her forehead were wet now with perspiration* (D.Dyu More, Jamaica Inn, 21-p.) – Uning qo'llari va peshonasi sovuq ter bilan qoplandi;

- **shok va dahshat holati:** *Sinking heart* – yurakning “cho'kishi”, ya'ni kutilmagan qo'rquv natijasida yuzaga keladigan hissiy holat. *Outside in the passage Mary felt her neck and her forehead go clammy with sweat, and her arms and legs were weighted suddenly, as though with lead.* (D.Dyu More, Jamaica Inn, 13-p.) – Yo'lakda turgan Mary bo'yni va peshonasining sovuq ter bilan qoplanganini sezdi, qo'l va oyoqlari esa og'irlik bilan to'lib qolgandek edi;

- **mimika va harakat o'zgarishlari:** *Blinking nervously and working her mouth* – asabiy ravishda ko'z qisish va lablarni qimirlash. *She turned pale* – yuz rangi oqarib ketdi. *She held her hands in her lap so that he should not see them tremble* – U qo'llarining titrashini yashirish uchun ularni tizzalari orasiga oldi.

Paralingvistikaning asoschilaridan biri R.Birdvistel muloqot ijtimoiy mazmunining atigi 30-35 foizi so'z orqali yetkazilishini ta'kidlaydi⁴³. A.Mehrabian esa o'z tadqiqotlarida adresatga axborot umumiy ta'sirining 93 foizi noverbal muloqot komponentlariga bog'liq, degan xulosani ilgari suradi⁴⁴.

O'zbek milliy madaniyati, insonlarining psixofiziologik tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlar, nutqiy vaziyatdagi ifoda vositalari tilshunosligimizda deyarli tahlil qilinmagan. O'zbek xalqida boshqa xalqlarda uchramaydigan *andisha, istihola, hayo* kabi hissiyotlar mavjud. *Andisha* – arabcha so'z bo'lib, “fikr, mulohaza” degan ma'noni anglatadi. Ketini, oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza. *Misol. Andishaning oti-qo'rqq.* (Maqoldan) 1. Umuman, fikr, mulohaza. *Misol. Qandaydir andisha tutdi tilini.* (A.Muxtor, Opa-singillar, 28-b.) 2. Sharm-hayo, ornomus hissi⁴⁵. *Misol: Tog'a ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha o'y o'ylab qolgan Akbaraliga ich-ichidan kuyinib qarab turardi. Bu yigit hech kimga so'z bermagan yaydoq yigitlardan edi. Endi zabun, ko'zlar andishadan yerga boqqan.* (Said Ahmad, Ufq, 30-b.) *Andisha* hissining og'zaki va yozma nutqda lisoniy voqelanishi fonetik, leksik, frazeologik, paremik birliklar va paralingvistik vositalar orqali ifodalanadi.

⁴³ Birdwhistell R. L. Communication. International Encyclopedia of the Social Sciences. – New York, 1968, – P.24-29.

⁴⁴ Mehrabian A. Nonverbal Communication. – Chicago: Aldine-Atherton, 1972. – ISBN 0-202-30966-5.

⁴⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 1- jild A-D – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.123.

Leksik jihatdan *andisha* soʻzining oʻzini qoʻllash bilan, frazeologik tarafdin “*andishaning otini qoʻrqqoq qoʻymoq*”, “*ogʻzi bormadi*”, “*tili bormadi*” kabi frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan:

Safar boʻzchi turgan oʻrnidan siljimadi: – Choʻzma kekirdagingni, boʻqqoq, – dedi, – qani qoʻyib berchi taqsiringni, yoqalashsin-chi, men bilan! Andishaning otini qoʻrqqoq qoʻydingmi?! (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon, 35-b.)

Tadqiqot ishimizning amaliy jihatini mustahkamlash maqsadida soʻrovnoma ham oʻtkazdik. Mazkur soʻrovnoma 16 ta savoldan tashkil topgan boʻlib, unda asosan hissiyot turlari, ularning qay tarzda namoyon boʻlishi, oʻrganilayotgan madaniyatlarda hissiyotlarning oʻziga xos xususiyatlari, ijobiy va salbiy hissiyotlar taʼsiridagi insonlar ruhiy holati hamda uni ifoda etuvchi soʻzlar va belgi (emoji) lar aniqlandi. Soʻrovnomalarni tahlil qilish davomida asosiy ishtirokchilarning 76,4% ini ayollar, 23,6% ini erkaklar tashkil qilganligi, 50% dan ortiq ishtirokchi 17-25 yosh toifasidagi respondentlar ekanligi aniqlandi va toʻplangan maʼlumotlar statistik tahlil qilindi.

XULOSA

1. Hissiyotlar barcha tillarda til jamoasi boʻlgan xalqning milliy anʼanalari, qadriyatlari, etnografiyasi va muloqot jarayoni bilan uzviy bogʻliq tarzda lingvokulturologik va psixolingvistik mohiyatni namoyon etadi. Hissiyot ifodalovchi vositalar lisoniy voqelanishiga koʻra turli tizimli tillarda universal va farqli belgi-xususiyatlarga ega.

2. Hissiyot ifodalovchi vositalarning til birligi sifatidagi funksional-semantik xususiyatlari va ularning milliy-lisoniy olam manzarasida aks etishidagi farqlarni hisobga olgan holda, har bir til materiali tahlilida lingvokulturologik hamda psixolingvistik yondashuvdan foydalanish ilmiy jihatdan asosli deb hisoblaymiz.

3. Lisoniylik va emotsionalikning sintezi natijasida yangi turdagi olam manzarasi – olamning hissiy-lisoniy manzarasi shakllanadi. Olamning bu kabi manzarasini uning asosiy tarkibiy va semantik qismlari boʻlgan psixologik hamda lingvistik kategoriyalari mushtarakligida tahlil qilish zarur.

4. Hissiyotlar – bu inson lisoniy ongidagi hissiy kechinmalarga xos universallik va madaniy belgilarni aks ettiruvchi, verbal va noverbal vositalar bilan ifodalanuvchi, milliy-madaniy jihatdan shartlangan mental birlikdir.

5. Hissiy-lisoniy olam manzarasida *ijobiy, salbiy va ambivalent* hissiyotlar mavjud boʻlib, ular insonning atrof-muhitga, hodisalarga va muloqot jarayoniga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Ijobiy hissiyotlar *quvonch, muhabbat* kabi insonning koʻtarinki ruhiyati bilan bogʻliq holatlarni anglatadi, salbiy hissiyotlar esa *gʻazab, qaygʻu, nafrat* kabi noxush psixologik holatlarni namoyon etadi. Ambivalent hissiyotlardan boʻlgan *hayrat* esa qarama-qarshi emotsional holatlarning bir vaqtda namoyon boʻlishi bilan xarakterlanadi. Ushbu hissiyotlar til birliklarida emotsional boʻyoqdor soʻzlar, frazeologik birliklar va metaforalar orqali ifodalanadi hamda shaxsning milliy-madaniy tafakkuri bilan bevosita bogʻliq boʻladi.

6. Barcha hissiyotlarning lisoniy voqelanishini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: a) shaxsning ichki holatlarini aks ettiruvchi (*qoʻrquv, quvonch,*

qayg' u); b) boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi his-tuyg'ular (*muhabbat, g'azab, hayrat*).

7. Tahlil qilingan hissiyot ifodalovchi vositalar muloqot jarayonining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotni ifodalovchi so'zlarning mazmuni, olamning hissiy-lisoniy manzarasining jonli muloqotdagi roli va bu aloqaning o'ziga xos xususiyatlari turli lingvomadaniyatlarga ko'ra keskin farqlanadi.

8. Turli tizimli tillarda so'zlashuvchi xalqlar madaniyatida olamning hissiy-lisoniy manzarasidagi *qayg' u, muhabbat, hayrat, qo'rquv, g'azab va quvonch* hissiyotlari o'ziga xos variativ ifodalarga ega. Ushbu lingvomadaniyatlarning asosiy xususiyati – hissiyotlarning sinkretikligi va ularning kundalik muloqotda yashirin ifodalanishidir. Hissiyot qanchalik yashirin bo'lsa, u shunchalik mental xususiyat kasb etadi. Jonsiz predmetlar va hayvonlarga nisbatan yuqori darajadagi hissiyotlar deyarli qayd etilmaydi.

9. Turli tizimli tillarda hissiyotni ifodalash jarayonidagi gender va yoshga ko'ra farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Turli lingvomadaniyatlarda ayollar va erkaklarga xos umumiy hissiyot ifodalovchi vositalar psixologik jihatdan mutanosibdir, ya'ni erkaklarda hissiyotning ifodalanishi nisbatan ochiq, ayollarda esa yashirin tarzda kechadi.

10. O'zbek xalqining madaniy-mental xususiyatlariga xos bo'lgan *andisha* hissi ijtimoiy muloqotda muhim pragmatik xususiyatga ega va bu holat ko'pincha bilvosita hamda ehtiyotkorona qo'llangan nutq vositalari orqali verballashadi. Noverbal jihatdan esa *andisha* holati ko'z kontaktidan qochish, ohangning pastligi, tanadagi muayyan holatlar (qo'lni qovushtirish, boshni egish) orqali namoyon bo'ladi.

FERGANA STATE UNIVERSITY

UBAYDULLAYEVA ZARNIGOR HASANBOY KIZI

**THE LINGUOCULTURAL AND PSYCHOLINGUISTIC STUDY OF
EMOTIVE EXPRESSION TOOLS IN VARIOUS SYSTEMIC LANGUAGES**

10.00.11 – Theory of language. Applied and computer linguistics

**ABSTRACT
of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) on philological sciences**

Fergana – 2025

The theme of PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № B2023.3.PhD/Fil3713.

The dissertation was performed in Fergana State University.

The dissertation abstract in three three languages (Uzbek, English and Russian (Resume)) has been uploaded on the website (www.fdu.uz) of the Scientific Council and on the website «Ziyonet» Information-educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific supervisor:

Akbarova Zuhro Akmaljonovna
Doctor of Philological sciences, Professor

Official opponents:

Sultonova Shohista Muhammadjanovna
Doctor of Philological sciences, Professor

Raupova Laylo Rahimovna
Doctor of Philological sciences, Professor

Leading organization:

Andijan State University

Defense of the Dissertation will take place on «29» 11 2025, at 10:00 a.m. at a meeting of Scientific Council DSc. 03/30.12.2019.Fil.05.02 under Ferghana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Ferghana, 100151. Tel: (99873) 244-57-82; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz.

The dissertation is available in the Information-resource center of Fergana State University (registration under № 616). Address: 19. Murtabbiylar Street, Fergana, 100151, Tel.: (99873) 244-71-28.

The abstract of the dissertation is distributed on « 7 » 11 2025.

(Mailing report № 57 dated « 7 » 11 2025).



G.Z.Rozikova

Chairman of the Doctor's Degree
Awarding Scientific Council
Doctor of Philology, Professor

M.T.Abdupattoyev

Scientific Secretary of the scientific
Council awarding scientific
degrees, Doctor of sciences, Professor

N.R.Umarova

Chairman of Scientific Seminar at the
Doctor's Degree awarding Scientific Council,
Doctor of Philology, Professor

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD))

The actuality and necessity of the topic. In contemporary linguistics, increasing attention is being paid to the study of the interrelationship between language, the human being, culture, and human psychology. In particular, within the framework of modern anthropocentric approaches, the study of language as a product of human cognition, psyche, and culture has acquired special significance. Language is a reflection of human thought and culture; it is not only a means of exchanging ideas, but also an essential tool for perceiving the world, shaping conceptual systems, and expressing national consciousness.

Emotions possess psycholinguistic, cognitive-linguistic, linguocultural, and communicative-pragmatic dimensions, and emotion-expressing means constitute the foundation of communication across languages with different structural systems. From this perspective, the study of this issue from various aspects is of practical importance, especially in the context of the increasingly global nature of communication processes. Although issues related to the emotional worldview and emotional concepts in live communication have been thoroughly investigated in world linguistics, it cannot be stated that emotion-expressing means in languages with different systems have been sufficiently explored. The relevance of such research is justified by several factors: the essential role of emotions in the proper development of individual consciousness; the diversity, abundance, and dynamism of linguistic means used to express emotions; and the growing scholarly interest in the forms of emotional expression in different world languages.

Uzbek linguistics has recently witnessed a surge in studies focusing on the linguistic analysis of emotion-expressing means. This aspect as an important factor in identifying how emotions are perceived and expressed in national thinking. At the same time, as noted: "...The task of developing scientific research and innovative activities, and comprehensively supporting creative ideas and developments"¹ also implies that the research should yield practical results. Scientific studies in this direction reveal the function of language in expressing emotions more deeply, as well as important theoretical aspects related to the cultural and psychological worldview of the people.

This dissertation, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks set forth in the following normative-legal documents: Presidential Decree No. PF-5847 dated October 8, 2019, "On the Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", Presidential Decree No. PF-5850 dated October 21, 2019, "On Measures to Radically Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language", Presidential Decree No. PF-6084 dated October 20, 2020, "On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in Our Country", Presidential Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", as

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил, 22 декабрдаги нутқи / "Халқ сўзи" – 2017 йил, 23 декабрь. № 258.

well as Resolution No. PQ-4479 dated October 4, 2019, “On Celebrating the Thirtieth Anniversary of the Adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan ‘On the State Language’” and other normative-legal acts.

Compliance of the research with the priorities of development of science and technology of the Republic. This dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state”.

The level of study of the topic. In both global and Uzbek linguistics, numerous scholarly works have been devoted to the psycholinguistic, sociolinguistic, communicative-pragmatic, linguoculturological, and comparative study of emotion-expressing means. Among Russian linguists, A.A. Shakhmatov, V.I. Shakhovsky, I.I. Chesnokov, N.A. Krasavsky, E.Y. Myagkova, and N.A. Bagdasarova² have focused on the comparative study of emotions in languages with different structural systems and their linguoculturological dimensions, while V.P. Morozov has addressed the problem of expressing emotions in humans and animals. E.S. Fomina, L.B. Babenko, L.M. Kolsova, and S.Y. Tokmakova³ have examined the expression of emotions in dialogic speech, and A.P. Babushkin has analyzed nonverbal means influencing the communication process, explaining differences between language and culture. I.R. Galperin and A.A. Leontyev have explored the expression of emotions within text structure. In addition, P.E. Klobukov, E.V. Yakovleva, M.D. Gorodnikova, and A.A. Savko⁴ focused on the lexical system of emotional expression and its role in shaping textual meaning, pioneering the emergence of a new direction in linguistic science – emotiology – earlier than Western European and American linguists. They asserted

² Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Л.: Российская государственная академическая типография. Вып. 2: Учение о частях речи: дополнения. – издательство Академии Наук СССР, 1969; Шаховский В.И. Язык и эмоции в аспекте лингвокультурологии. – Волгоград: Издательство ВГПУ Перемена, 2009; Чесноков И.И. Месть как эмоциональный поведенческий концепт (опыт когнитивно-коммуникативного описания в контексте русской лингвокультуры). – Волгоград: Изд-во ВГПУ Перемена, 2008; Красавский Н.А. Эмоциональный концепт “отвращение” в романе Роберта Музиля “Душевные смуты воспитанника тёрлеса” // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М., 2015. – С.114-118; Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. – Волгоград: Перемена, 2001; Мягкова Э.Ю. Язык – эмоции – сознание – культура в теории А. Дамасио. – Тверь: Россия, 2022; Багдасарова Н.А. Эмоциональный опыт в контексте разных культур // Человек. – М., 2005. – №5. – С.105-111.

³ Морозов В.П. Занимательная биоакустика: Рассказы о языке эмоций в мире животных и человека. – М.: Знание, 1983; Фомина Е.З. Эмоциональные концепты в русской, немецкой, австрийской и швейцарской художественных картинах мира // Лингвоконцептология: перспективные направления. – Луганск: Изд-во ГУ ЛНУ имени Тараса Шевченко, 2013; Бабенко Л.Г. Обозначение эмоций в языке и речи – Свердловск: Изд-во Уральского университета, 1986; Кольцова Л.М., Томакова С.Е. Оценка и эмоции в языке русской литературной сказки XVIII-XXI веков – Воронеж: Наука-Юнипресс, 2015.

⁴ Бабушкин А.П. Поиск “тела знака” для наименования концепта // Филология и культура. Материалы международной конференции 12-14 мая / отв. ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов: Изд-во ТГ, 1999 – С.100-104; Галперин И.Р. Лексикологические и стилистические проблемы функционирования слова и словосочетания. – М.: Б.В., 1977; Леонтьев А.А. Язык, речь и речевая деятельность. – М., 1969; Клобуков П.Е. Метафора как концептуальная модель формирования языка эмоций // Язык, сознание, коммуникация. – М., 1997; Яковлева Е.В. Функциональная специфика междометий и релятивных конструкций как элементов эмотивного смысла в текстах психологической прозы. Дисс. ...канд.филол.наук. – Ставрополь, 2017; Городникова М.Д. Эмотивные явления в речевой коммуникации. – М., 1985; Савко А.А. К вопросу об универсальности эмоций и их связи с языком и культурой // Личность – слово – социум. – М., 2006.

that this field should be studied within the framework of the system-structural paradigm.

Notably, these scholars pioneered the development of a new linguistic branch **emotiology** – prior to their Western European and American counterparts, emphasizing the need to study this domain within the framework of the system-structural paradigm.

It is well known that emotions are positive, negative, pleasant, or unpleasant experiences arising from an individual's attitude toward themselves, others, society, education, property, nature, and labor. Therefore, emotions have always been of interest to psychologists and linguists working in the field of emotology. The reflection of human emotions in language has consistently remained a relevant subject of inquiry. In the early stages of emotiolinguistics, A.Potebnya and E.Sapir studied human emotions from a psycholinguistic perspective, whereas scholars such as N.Chomsky, N.Bessnier, and B.Volek primarily focused on the classification of emotions and their linguistic representation. In the works of researchers including A.Wierzbicka, P.Ekman, W.McDougall, K.Izard, M.Arnold, N.Frijda, V.Friesen, P.Ellsworth, W.James, R.Plutchik, J.Gray, E.Hall, and V.Noth⁵ the classification, expression, and linguoculturological aspects of emotions have been explored.

In Uzbek linguistics, scholars such as A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, E.Begmatov, S.Mo'minov, S.Boymirzayeva, I.Azimova, M.Hakimov and Z.Akbarova⁶ have addressed linguistic units used to reflect an individual's social and psychological state in the process of communication, while scholars such as

